

PAPER

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI FANETIK KOMPETENSIYAGA TA'SIRI

Tursunova Kamola Ulug'bek qizi ^{1,*}

¹Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim kafedrası o'qituvchisi

* Kamola@gmail.com

Abstract

Talim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning malumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mazkur maqolada zamonaviy talim texnologiyalari va ularni fanetik kompetensiyaga tasiri haqidagi bilimlar bayon qilingan.

Key words: Fonetika, uslubiyot, nutq, rivojlanish, dars, interfaol metod, raqamli texnologiya, kompetensiya.

Asosiy qism

o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, yani o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Talim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida talim va tarbiya masalalari hal etiladi. Talimning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, talim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda talimning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni manaviy boyitishdan iboratligi takidlangan. Talimiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa manaviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit", degan ekan. Yurtimizda talim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy manoda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin manoda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish

bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Malumki, talimda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak manaviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali talim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. o'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi – darsning samaradorligi, uning sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda talim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan,

zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir.

Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga "men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman" deya o'ziga savol berishi yani, ananaviy talimdan qochib, noanaviy talim berishga intilishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab: - darsning maqsadi; - maqsadga erishish yo'llari; - o'quv materiallarini taqdim etish usullari; - o'qitish metodlari; - o'quv topshiriqlarining turlari; - muhokamalar uchun savollar; - munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari; - o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim.

Talim tizimining hozirgi holatida raqamli talim texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega. o'quvchining raqamli texnologiyalar bilan bilimlarni o'zlashtirishi ananaviy texnologiyalarga qaraganda bir muncha tezroq amalga oshadi. Raqamli texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun talim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Demak, oldimizga quyidagi savolni qo'yaylik, Raqamli texnologiya - o'zi nima? Raqamli texnologiya bu - xo'jalik yuritishning zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta malumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa ananaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Biz esa, talim tizimida raqamlashtirishga to'xtalib o'tamiz. Talimda ham boshqa sohalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida talim olish usullari osonlashadi. Bunda esa talim tizimi vositalari rolini kompyuter, noutbuk, multimediyalar, kodskop, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Pedagog hodimlarni bunday vositalar bilan talim jarayonlarini tashkil qilishi talim sifatini oshirishni taminlaydi. Onlayn darslarda, konferensiyalarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi barchaga malum. Demak, raqamli talimning afzalliklari xohlagan joyida va xohlagan vaqtida talim olish imkoniga ega, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, talim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi, raqamli dunyoda yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishligi kabilardir.

Prezidentimiz farmoni bilan Wi-Fi zonalar, IT parklar ochilishi raqamli talim tizimini yuksalishiga katta xizmat qiladi. Talim sohasida VR (virtual haqiqat) o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR (virtual haqiqat) dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi. Tahlil (kuzatish) natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, oliy talim muassasalarida raqamli texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini, innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga talimni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash va darsdan tashqari o'quv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik taminotni takomillashtirishda zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarning iqtidori, qobiliyati va qiziqishlarini

oshirishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasini atroflicha tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib talimni axborotlashtirish bugungi rivojlanish darajasida talab etiladigan zaruriyatlardan biri hisoblanib, o'qituvchi va o'quvchi uchun kompyuter dasturlari va tarmoqlari axborotlarni qabul qilish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarini tez amalga oshirish uchun zamonaviy vosita hisoblanadi.

Bugungi talimni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchisini tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish tizimini yaratish va undan unumli foydalanish dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy o'qitish vositalarining talim jarayoniga keng joriy etilishi, bo'lajak informatika o'qituvchilari oldiga muntazam mustaqil ravishda talim olish vazifasini yuklamoqda. Ushbu o'qitish vositalarini yaratish, ulardan talim tizimida foydalanish yaxshi samara berishi shubhasiz. Talimda zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish talabalarning ko'proq ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog'liq. L.F.Solovlev "multimediali interaktiv darsliklarning, amaliy mashg'ulotlarni o'rgatishda katta ahamiyat kasb etishi, ularning tarkibini tanlash maqsadga muvofiqligi, o'quv materiallarini tashkil etish va taqdim etish yo'llarini, estetik va axloqiy xususiyatlarini, darsliklardan foydalanish usullarini, tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish lozimligi" haqida fikr yuritgan [1].

Umumiy o'rta talim maktablarida informatika fanini o'qitishda zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanishning qulaylik tomoni shundan iboratki, o'quvchida fanni mustaqil o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bu imkoniyatdan foydalanib, ushbu fanga oid video lavhalarni takror ko'rish, mavzuga oid malumotlarni qidirib topish, berilgan topshiriqlarni qayta bajarib ko'rish hamda o'zini-o'zi baholash testlaridan bir necha marotaba foydalanish imkoniyati ham yuzaga keladi. Shu bilan birga, talabalarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga va fikrlash doirasini yanada kengaytirishga hamda tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Matematik M.N.Soyning fikriga ko'ra, "talimda elektron darsliklardan foydalanish quyidagi xususiyatlarga ega: tashuvda (kompakt disk yoki vinchester) saqlanadigan malumotlar (vazifalarning qo'yilishi, testlar, mashqlar, misol va namunalar)ning ko'p qismini tezkorlik bilan ishlatishga imkon yaratish; zamonaviy kompyuterlarning elektron darslik asosida o'qitish tezligini bir qancha oshirish imkoniyatiga egaligi" [2]. "Talim tizimining asosiy komponenti o'qituvchi bo'lib, u talim jarayonini shakllantirish uchun javobgar shaxs hisoblanadi" [3]. Maktab talim tizimida o'qituvchi darsda o'rgatishi lozim. bo'lgan mavzu mazmunini o'quvchilar ongiga yetkazish uchun o'qitish usuli, metodlari, vositalari va shakllarini tanlaydi hamda o'zining pedagogik faoliyatini tashkil etish tarkibi va mazmunini loyihalashtiradi.

V.P.Simonovning tabiri bilan aytganda, "dars o'quv-tarbiya va o'qituvchi tashkiliy hamda talim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyati bilan birgalikdagi tizim hisoblanib, berilgan dars asosida umumiy o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga erishishga yo'naltirishdir". Talimda kompyuterlar keng qo'llanila boshlangani sababli "talimda axborot texnologiyalari" haqida gapirish zarur bo'lib qoldi.

Axborot texnologiyalari vositalari markazida turuvchi vosita - kompyuterdir. Bugungi kunda kompyuterlar talim tizimida asosan to'rt yo'nalishda: o'rganish obyekti sifatida, o'qitishning texnik vositalari sifatida, talimni boshqarishda va ilmiy pedagogik izlanishlarda foydalaniladi. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar muhiti bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi kompyuter savodxonligi mazmunini ochib beruvchi, qolaversa AKT bilimlarini chuqurlashtirishga olib keladi va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashni taminlaydi.

References

1. Ruziev E.I., Ashirboev A.O., “Muhandislik grafikasini o’qitish metodikasi”.-T.: “Fan va texnologiya”,2010.
2. Raxmonov I., Qirg’izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik.-T.: “Voriz nashriyot”,2016
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida talim samaradorligini oshirish yo’llari.-T.:TDPU, 2005y.2.
4. Raxmonov I., Valiyev A., Valiyeva., Muhandislik grafikasi fanini o’qitishning zamonaviy texnologiyalari.-T.: “Navro’z”,2015
5. Abduraxmonov A., Chizmachilikdan grafik topshiriqlar tizimi.-T.: Cho’lpon, 2005.
6. A.N.Valiyev., B.R.Haqberdiyev., N,X.Gulomova., Z.A.Boboyeva., Nigmanov B. Chizmachilik.-T.: “o’zbekiston xalqaro islom akademiyasi”,2020.
7. Ibragimova G.N. Interfaol o’qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya.-T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016.-77-b.
8. A. Umarxo’jayev., Maktabda chizmachilik o’qitishni takomillashtirish.-T.: o’qituvchi, 1993.
9. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda talim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari.-T.:TDPU, 2001.-10
10. Zeer, E. F. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya/ E.F.Zeer.-M.: MPSI, 2005.-216s.84.
11. Karimova, M.O., Saidullaeva, A.R.(2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalaArchs Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*,17(7), 8547-8555.
12. Karimova M., Tuychieva R. THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL